JAMIYAT BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA YOSHLARDA EKSTREMIZMGA NISBATAN MUROSASIZLIK MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Uralov Mansur Uralovich
Innavatsion va texnalogiyalar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyat barqarorligini ta’minlashda yoshlarda ekstremizmga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirishning dolzarb masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, ularni bartaraf etish mexanizmlari hamda profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ekstremizm, radikalizm, yoshlar siyosati, ma’naviyat, tarbiya, profilaktika, jamiyat, barqarorlik.

Bugungi globallashuv sharoitida axborot oqimining keskin ortib borishi yoshlar ongiga turli mafkuraviy ta’sirlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, ekstremistik va radikal g‘oyalar internet orqali tez tarqalayotgani jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Shu bois yoshlarda ekstremizmga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish bugungi kunda har qanday davlat va jamiyat oldidagi ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Jahonda ekstremizm va radikalizm fenomenlari zamonaviy xalqaro xavfsizlik me’yorlariga eng jiddiy chaqiriqlar sifatida qaralmoqda. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, transmilliy migratsiya oqimlarining kengayishi hamda raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarining chuqur kirib borishi natijasida radikal qarashlarning tarqalishi uchun ijtimoiy-siyosiy sharoit yanada qulaylashdi. Bu jarayonlar nafaqat milliy xavfsizlik, balki xalqaro barqarorlikka ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun global miqyosda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, jamiyatlararo bag‘rikenglik tamoyillarini mustahkamlash va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish siyosiy kun tartibining muhim vazifasiga aylanmoqda.

Keyingi yillarda ekstremizm va radikalizm jahon siyosiy jarayonlarining eng keskin muammolaridan biriga aylandi. Ular nafaqat global xavfsizlik, balki milliy barqarorlik, ijtimoiy integratsiya va yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi uchun ham jiddiy tahdid tug‘dirmoqda. Ayniqsa, yoshlarning mafkuraviy ta’sirlarga ochiqligi ularni ekstremistik oqimlarning asosiy auditoriyasiga aylantiradi.

O‘zbekiston kontekstida masala yanada dolzarb, chunki aholining 60 foizdan ortig‘ini yoshlar tashkil etadi. Shu bois davlat siyosati ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashni maqsad qiladi. “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun (2017) va “Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun (2018) bu borada muhim asos bo‘lsa-da, faqat huquqiy choralar yetarli emas. Samarali natija profilaktika, ta’lim, fuqarolik jamiyati va ma’naviy-ma’rifiy ishlarda uyg‘un yondashuv orqali ta’minlanadi.

XXI asrda globallashuv jarayonlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keskin rivojlanishi insoniyat oldiga yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda murakkab tahdidlarni ham olib keldi. Ulardan eng jiddiylari qatorida ekstremizm va radikalizm masalasi alohida o‘rin tutadi. Bu hodisalar jamiyat barqarorligiga, milliy xavfsizlikka va insoniyat taraqqiyotiga bevosita xavf tug‘dirib, ayniqsa yoshlar ongini nishonga olishi bilan xavflidir.

O‘zbekiston aholisi, xususan yoshlar soni nisbatan yuqori bo‘lib, ularning mafkuraviy immuniteti milliy xavfsizlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois davlatimizda “Yoshlar siyosati to‘g‘risida” gi Qonun, “Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonun, “Ma’naviyat va ma’rifat markazi” hamda “Yoshlar ishlari agentligi” faoliyati yoshlar ongida murosasizlikni bartaraf etish va bag‘rikenglikni shakllantirishga qaratilgan.

Qadimgi davrlardan boshlab mutafakkirlar yoshlarni jamiyat hayotining eng muhim qatlamlaridan biri sifatida ko‘rgan. Aristotel “Siyosat” asarida yoshlarni “davlat hayotiga yangi

kirib kelayotgan kuch” sifatida tasvirlab, ularning tabiiy energiyasi siyosiy hayotda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi[1]. Sharq mutafakkirlaridan Forobiy “Fozil odamlar shahri”da yoshlarni jamiyatning kelajagini belgilovchi subyekt sifatida baholagan, ularning ta’lim va tarbiyasi davlat barqarorligining kafolati ekanini alohida urg‘ulagan[2]. Ibn Sino esa yoshlarni bilim, axloq va siyosiy madaniyatni o‘zlashtirish bosqichida bo‘lgan guruh sifatida ta’riflagan. Uning fikricha, yoshlarning tarbiyasi bevosita jamiyatning ma’naviy rivojiga ta’sir etadi[3]. Bu talqinlardan ko‘rinib turibdiki, yoshlar qadimiy davrlardanoq nafaqat tabiiy energiyasi, balki ma’naviy shakllanish jarayoni tufayli ham jamiyatning eng muhim subyekti sifatida qaralgan. Shu jihatdan falsafiy tafakkur yoshlarni jamiyat taraqqiyotining bosh mezoni sifatida talqin qiladi.

BMT tasnifiga ko‘ra, yoshlar 15–24 yosh oralig‘idagi shaxslar sifatida belgilanadi[4]. O‘zbekiston qonunchiligida esa yoshlar 14–30 yosh oralig‘idagi fuqarolarni qamrab oladi. Bu yondashuv mamlakat demografik xususiyatlariga mos ravishda belgilangan bo‘lib, aholining ko‘pchilik qismi yoshlar ekanini hisobga oladi. Demak, yoshlar masalasi O‘zbekiston uchun faqat ijtimoiy emas, balki strategik siyosiy ahamiyatga ham ega. 2017-yilda qabul qilingan “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun ushbu qatlamga davlat tomonidan ko‘rsatiladigan e’tibor va qo‘llab-quvvatlashning huquqiy asosini yaratdi. Ushbu hujjat yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va mafkuraviy immunitetini mustahkamlashni maqsad qiladi .

Yoshlar siyosiy kategoriya sifatida jamiyatda ikki tomonlama rol o‘ynaydi. Bir tomondan, ular demokratik qadriyatlar va modernizatsiya jarayonlarining asosiy tashuvchilari hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, yoshlarning tajribasizligi va hissiy ta’sirchanligi ularni radikal oqimlar ta’siriga berilish xavfini oshiradi. Zbignev Bjezinskiy ta’kidlaganidek, zamonaviy mafkuraviy mojarolarning aksariyatida yoshlar asosiy vositachiga aylanmoqda[5].

O‘zbekiston sharoitida esa yoshlar siyosati “Yangi O‘zbekiston” davrida milliy taraqqiyotning asosiy strategik yo‘nalishiga aylandi. “Yoshlar ishlari agentligi” va “Ma’naviyat va ma’rifat markazi” faoliyati yoshlarning siyosiy-ijtimoiy faolligini oshirish, ularni ekstremizm va radikalizmga qarshi mafkuraviy immunitetga ega qilishni maqsad qiladi. Shunday qilib, “yoshlar” tushunchasi demografik yoki biologik ko‘rsatkichdan ancha kengroq mazmunga ega. Falsafiy yondashuv uni jamiyatning ma’naviy poydevori sifatida, sotsiologiya esa ijtimoiy transformatsiyalar markazida turgan qatlam sifatida baholaydi. Siyosiy nuqtai nazardan esa yoshlar milliy xavfsizlik va barqarorlikni belgilovchi strategik subyekt hisoblanadi.

Yoshlar - har qanday jamiyatning eng faol, shu bilan birga eng ta’sirchan qatlami bo‘lib, ular mafkuraviy manipulyatsiyalarga eng tez beriluvchi guruhdir. Shuning uchun ekstremistik oqimlar o‘z mafkuralarini yoyishda aynan yoshlarni asosiy “nishon” sifatida tanlaydi[6]. Bu holat Markaziy Osiyo mintaqasida ham kuzatilmoqda: diniy ekstremistik tashkilotlar internet orqali yoshlarni o‘z safiga jalb qilish uchun psixologik ta’sirchan usullarni qo‘llamoqda. Zbignev Bjezinskiy o‘zining “Buyuk shaxmat taxtasi” asarida ta’kidlaganidek, XXI asr mojarolarining ko‘pchiligi mafkuraviy tusda bo‘ladi va ayniqsa yosh avlod ularning asosiy ishtirokchisiga aylanadi[7]. Bu esa ekstremizmni nafaqat siyosiy tahdid, balki avlodlar barqarorligi uchun ham xavf sifatida ko‘rib chiqishga majbur qiladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon ekstremizmga qarshi kurashni milliy xavfsizlikning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilagan. “Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonun va Prezident farmonlari asosida yoshlarni yot g‘oyalardan himoya qilish mexanizmlari ishlab chiqildi. Shu bilan birga, “Ma’naviyat va ma’rifat markazi” va “Yoshlar ishlari agentligi” kabi muassasalar orqali profilaktik tadbirlar kuchaytirildi.

Bugungi kunda ekstremizmning O‘zbekistondagi xavfi ikki omil bilan bog‘liq: birinchidan, yoshlarning ulushi yuqori bo‘lgani uchun ular mafkuraviy nishon bo‘lib qolmoqda; ikkinchidan, global axborot tarmoqlari orqali yot g‘oyalar tez tarqalmoqda. Shu bois ekstremizmni chuqur tahlil qilish va unga qarshi samarali siyosiy mexanizmlar ishlab chiqish dolzarbdir.

O‘zbekiston ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali mamlakat sifatida tarixan bag‘rikenglik an’analariga ega. Shu bois murosasizlikka qarshi kurash davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylangan.

Siyosatshunoslikda ekstremizm ko‘pincha murosasizlikning eng yuqori nuqtasi sifatida talqin qilinadi[8]. Avval murosasizlik qarashlari shakllanadi, keyin ular ijtimoiy-madaniy ziddiyatlarni kuchaytiradi va natijada radikalizm yoki ekstremizm sifatida yuzaga chiqadi. Shu sababli murosasizlikni faqat axloqiy muammo sifatida emas, balki siyosiy xavf sifatida ham baholash lozim. Borum tomonidan ishlab chiqilgan radikallashuv modeliga ko‘ra, ekstremistik jarayon to‘rt bosqichdan iborat: (1) shaxsiy adolatsizlik hissi, (2) murosasizlik qarashlari shakllanishi, (3) radikal mafkurani qabul qilish, (4) zo‘ravonlikka tayyorlik. Bu model ham murosasizlikning ekstremizm shakllanishidagi markaziy rolini ko‘rsatadi.

Bizning fikrimizcha, O‘zbekiston sharoitida yoshlar – murosasizlik – ekstremizm triadasi faqatgina umumiy nazariy yondashuvlar asosida emas, balki milliy-demografik xususiyatlar va global axborot oqimlari ta’sirini hisobga olgan holda tahlil qilinishi zarur. Shu nuqtayi nazardan quydagi xulosalarga keldik:

Birinchidan, tadqiqotimizda murosasizlik tushunchasi nafaqat psixologik yoki axloqiy fenomen, balki yoshlarning mafkuraviy immuniteti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan siyosiy kategoriya sifatida talqin qilinmoqda. Amaldagi ilmiy adabiyotlarda bu jihat yetarlicha yoritilmaganini qayd etish mumkin.

Ikkinchidan, biz yoshlarning ekstremizmga moyilligi avvalo murosasizlik qarashlari bilan uzviy bog‘liq ekanini asoslab bermoqdamiz. Shu nuqtai nazardan, yoshlar orasida murosasizlikni kamaytirishning eng samarali yo‘li ularning axborot madaniyatini rivojlantirish va tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Bu yondashuv ekstremistik targ‘ibotga qarshi kurashning innovatsion mexanizmi sifatida taklif qilinmoqda.

Uchinchidan, tadqiqotda uch tushuncha o‘rtasidagi bog‘liqlik integratsion model asosida tushuntirilmoqda. Ushbu modelda: yoshlar — subyekt, murosasizlik — psixologik va ijtimoiy asos va ekstremizm — oqibat sifatida talqin qilinmoqda.

Bizning nazarimizda, mazkur integratsion model O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy tizimida mafkuraviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan nazariy-amaliy yondashuvdir. Demak, agar yoshlarning axborot makonida faol immuniteti shakllantirilmasa, murosasizlik qarashlari ularni ekstremizmga olib kelishi ehtimoli kuchayadi. Shu sababli milliy siyosatda yoshlar uchun raqamli media savodxonlik dasturlarini keng joriy etish, yoshlar klublari va ma’naviy-ma’rifiy platformalar orqali bag‘rikenglikni mustahkamlash dolzarb masala sifatida qaralishi lozim.

O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti doimo millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik va o‘zaro hurmat qadriyatlariga tayangan. Mustaqillikdan keyin ushbu tamoyillar davlat siyosatida yangicha mazmun kasb etib, ayniqsa yoshlar masalasi strategik ustuvorlik sifatida belgilandi. Bu jarayonda ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish bilan bir qatorda, mafkuraviy immunitetini shakllantirish ham muhim vazifa sifatida ilgari surildi. Siyosatshunoslik nuqtayi nazaridan bu ikki asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: birinchidan, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish, ikkinchidan, ularni ekstremistik va radikal oqimlardan himoyalash.

Xulosa qilib aytganda, ekstremizmga qarshi kurashda huquqiy mexanizmlar bilan bir qatorda, ma’naviy-ma’rifiy yondashuvlarning ham kuchaytirilishi yoshlar ongida mustaqil fikrlash, siyosiy madaniyat va milliy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, raqamli media savodxonlikni rivojlantirish bugungi global axborot oqimida yoshlarni tanqidiy tafakkur va axborotni ajrata olish ko‘nikmalariga ega etishda muhim vosita sifatida qaralmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аристотель , Политика; пер. с греческого С.А. Жебелева, Т.А. Миллер. — Москва : Издательство АСТ, 2018

2. Фараби. Город добродетельных людей. – Ташкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1993

3. Ибн Сино. Китоб уш-шифо (танланган асарлар). – Тошкент: Фан, 2005.

4. United Nations. World Programme of Action for Youth. – New York: UN, 2010.

5.Brzezinski, Z. The Grand Chessboard: American Primacy and Its Geostrategic Imperatives. – New York: Basic Books, 1997.

6. Borum, R. Radicalization into Violent Extremism I: A Review of Social Science Theories // Journal of Strategic Security. – 2011. – Vol. 4, № 4. – B. 7–36.

7. Brzezinski, Z. The Grand Chessboard: American Primacy and Its Geostrategic Imperatives. – New York: Basic Books, 1997.

8. Heywood, A. Political Ideologies: An Introduction. – London: Palgrave Macmillan, 2017.